



UCHINCHI JAHON URUSHI OLDINI OLISHDA DAVLATLARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI AHAMIYATI

Shamsiddinov Bunyod Bahriddin o'g'li,

Shomurotova Zulfiya Akmaljon qizi,

Todjivoyev Mansur Ulug'bek o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda urushlarning asosiy sabablaridan biri iqtisodiy manfaatlar, resurslar uchun kurash va geosiyosiy ustunlikka intilishdir. Tarix davomida ko'plab urushlar aynan iqtisodiy omillar tufayli boshlangan. Masalan, tabiiy resurslar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, savdo yo'llarini kengaytirish yoki iqtisodiy ta'sir doirasini oshirishga bo'lgan intilish turli davlatlarni bir-biri bilan ziddiyatga olib kelgan. Bugungi kunda Rossiya–Ukraina va Isroil–Falastin mojarolari shuni yana bir bor isbotlamoqda. Iqtisodiy xavfsizlik har bir davlat mustaqilligining muhim omili bo'lib, agar davlatlar o'z iqtisodiy barqarorligini saqlab qola olsalar, urushlarning oldini olish imkoniyati oshadi. Ushbu maqolada iqtisodiy xavfsizlikning urushlarning oldini olishdagi ahamiyati va hozirgi mojarolardan saboq sifatida chiqarilishi mumkin bo'lgan xulosalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro hamjamiyat iqtisodiy vositalar yordamida tinchlikni saqlash uchun qanday choralar ko'rishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, mamlakat resurslari, yaqin o'tmishdagi urushlar, uchinchi jahon urushi, iqtisodiy barqarorlik, mustahkam iqtisodiyot, Rossiya- Ukraina, Isroil-Falastin

Annotation: One of the main causes of wars in the modern world is economic interests, competition for resources, and the pursuit of geopolitical dominance. Throughout history, many wars have been triggered by economic factors. For



example, the desire to gain control over natural resources, expand trade routes, or increase economic influence has led various countries into conflicts. The ongoing Russia-Ukraine and Israel-Palestine conflicts once again confirm this reality. Economic security is a crucial factor in the independence of any state, and if countries can maintain economic stability, the likelihood of preventing wars increases. This article examines the importance of economic security in preventing wars and the lessons that can be learned from current conflicts. Additionally, it explores the measures the international community can take to maintain peace through economic means.

Keywords: Economic security, national resources, recent wars, World War III, economic stability, strong economy, Russia-Ukraine, Israel-Palestine

Аннотация: Одна из главных причин войн в современном мире — это экономические интересы, борьба за ресурсы и стремление к геополитическому превосходству. На протяжении истории многие войны начинались именно по экономическим причинам. Например, стремление установить контроль над природными ресурсами, расширить торговые пути или увеличить сферу экономического влияния приводило различные страны к конфликтам. Современные конфликты между Россией и Украиной, а также Израилем и Палестиной вновь подтверждают эту реальность. Экономическая безопасность является важным фактором независимости любого государства, и если страны смогут сохранить экономическую стабильность, вероятность предотвращения войн возрастает. В данной статье рассматривается значение экономической безопасности в предотвращении войн и выводы, которые можно сделать на основе современных конфликтов. Кроме того, анализируются меры, которые международное сообщество может принять для сохранения мира с помощью экономических инструментов.



Ключевые слова: экономическая безопасность, ресурсы страны, недавние войны, Третья мировая война, экономическая стабильность, сильная экономика, Россия-Украина, Израиль-Палестина

Iqtisodiy xavfsizlik: Barqarorlik va urushlar o'rtasidagi bog'lanish

Iqtisodiy xavfsizlik, davlatning o'zining iqtisodiy tizimlarini tashqi va ichki tahdidlardan mustaqil ravishda boshqarish, resurslarga barqaror kirishni ta'minlash va uzluksiz rivojlanish imkoniyatlarini yaratish qobiliyatidir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning iqtisodiy mustaqilligi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, moliyaviy resurslar va savdo aloqalari muhim rol o'ynaydi. Agar bir davlatning iqtisodiy vaziyati zaif bo'lsa, bu holat uning siyosiy mustaqilligi va xavfsizligini ham xavf ostiga qo'yadi. Iqtisodiy xavfsizlik davlatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun juda muhim. Iqtisodiy mustahkamlik orqali davlatlar o'zining tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini oshiradi, bu esa harbiy mojarolarga qarshi tura olish imkoniyatlarini yaratadi. Iqtisodiy jihatdan kuchli davlatlar nafaqat ichki barqarorlikni saqlab qoladi, balki xalqaro aloqalarda ham ishonchli bo'lishadi, bu esa urushlar va harbiy mojarolarning oldini olishda katta rol o'ynaydi.

Iqtisodiy xavfsizlikning eng katta jihatlaridan biri – siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Agar davlatning iqtisodiyoti zaif bo'lsa, bu uning xalqaro maydondagi mavqeyiga ham ta'sir ko'rsatadi. Zaif iqtisodiy holat, tashqi tahdidlarga qarshi himoya qilish imkoniyatlarini kamaytiradi, buning natijasida boshqa davlatlar yoki tashkilotlar tomonidan bosimlar kuchayishi mumkin. Bunday holat, o'z navbatida, iqtisodiy resurslarni safarbar qilishga yoki harbiy operatsiyalarni moliyalashga imkon bermaydi. Iqtisodiy zaifliklar ko'p hollarda urushlar va harbiy mojarolarga olib keladi yoki ularga turtki beradi. Bir davlat iqtisodiy tanazzulga uchraganda, uning xalqaro aloqalari ham yomonlashadi, bu esa boshqa davlatlar bilan raqobatni kuchaytiradi. Aynan shu raqobat va resurslar uchun kurash, ba'zi hollarda urushga aylanishi mumkin. Misol uchun, energetika resurslari, suvlarga bo'lgan



ehtiyoj yoki boshqa tabiat boyliklari uchun kurashlar ko'plab harbiy mojaro va urushlarni keltirib chiqargan.

Bundan tashqari, iqtisodiy zaiflik bir davlatning ichki muammolariga ham turtki beradi. Daxldorlik va milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar, muvozanatni saqlashga urinishlar va iqtisodiy reaktivlar kurashi mahalliy nizolarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, davlatning iqtisodiy rivojlanishida adolatsizliklar va boylikni taqsimlashda nomutanosiblik bo'lsa, bu ichki to'qnashuvlarni keltirib chiqarishi va kelajakda tashqi qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lishi mumkin. Urushlar nafaqat siyosiy yoki strategik maqsadlar uchun, balki iqtisodiy resurslarni olish maqsadida ham boshlanishi mumkin. Iqtisodiy resurslar (masalan, tabiiy boyliklar, er osti resurslari, texnologiyalar) uchun kurash o'z navbatida harbiy harakatlarni kuchaytiradi. Bunday holatlar davlatlarni yangi iqtisodiy imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lish uchun harbiy choralar ko'rishga undashi mumkin. Urushlar nafaqat siyosiy yoki strategik maqsadlar uchun, balki iqtisodiy resurslarni olish maqsadida ham boshlanishi mumkin. Iqtisodiy resurslar (masalan, tabiiy boyliklar, er osti resurslari, texnologiyalar) uchun kurash o'z navbatida harbiy harakatlarni kuchaytiradi. Bunday holatlar davlatlarni yangi iqtisodiy imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lish uchun harbiy choralar ko'rishga undashi mumkin.

Yaqin o'tmishdagi urushlarning iqtisodiy jihatdan tahlili

Rossiya–Ukraina urushi, nafaqat harbiy, balki iqtisodiy va geosiyosiy jihatdan ham muhim oqibatlariga olib keldi. Urushning asosiy sabablaridan biri Rossiyaning Ukrainani o'z ta'sir doirasida saqlash va G'arb davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligini cheklashga bo'lgan intilishidir. Ukraina, o'z navbatida, G'arb bilan yaqinlashishga va NATO va Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan, bu esa Rossiyaning milliy manfaatlariga tahdid sifatida qaralgan. Rossiyaning Ukrainaga qarshi bosim qilishdagi asosiy vositalaridan biri energiya resurslari bo'lgan. Ukraina, ko'p jihatdan, Rossiya gazining asosiy tranzit yo'li sifatida muhim



o‘rin tutgan. Rossiya, bu orqali, Ukrainani iqtisodiy qiyinchiliklarga solish va ularni o‘z iqtisodiy ta’sir doirasidan chiqarib yuborishga harakat qilgan. Urushning natijalari juda jiddiy bo‘ldi. Rossiyaga qarshi joriy qilingan qattiq iqtisodiy sanksiyalar, uning ichki iqtisodiyotiga katta zarba yetkazdi. Yevropa Ittifoqi va Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan qo‘llanilgan sanksiyalar natijasida Rossiyaning valyutasi pasayib, inflyatsiya kuchaydi va iqtisodiy o‘rishning qisqarishi kuzatildi. Shu bilan birga, urushning to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqibatlaridan biri sifatida, Ukraina iqtisodiyoti keskin zararlanganini ko‘rish mumkin. Sanoat va infratuzilma obyektlarining vayron bo‘lishi, odamlarning millionlab soni qochqin bo‘lib qolishi va xalqaro yordamga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bu jarayonning salbiy ko‘rsatkichlari edi. Agar Ukrainaning iqtisodiy xavfsizligi yetarlicha mustahkam bo‘lganda va Rossiya bilan savdo aloqalari muvozanatli bo‘lganida, ehtimol, bu mojaro bunday darajaga yetib kelmagan bo‘lar edi. Biroq, urushning boshlanishi, ayniqsa, Ukrainaning G‘arb bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga bo‘lgan intilishi, barcha tomonlar uchun iqtisodiy va siyosiy natijalarga olib keldi. Xuddi shunday yaqin o‘tmishda boshlangan va hozir ham qisman davom etayotgan Isroil-Falastin urushida ham yetarlicha iqtisodiy sabablarni ko‘rish mumkin. Isroil–Falastin mojarosi o‘zining asosan siyosiy va diniy sabablaridan tashqari, iqtisodiy beqarorlikni ham o‘z ichiga olgan bir nechta murakkab omillarning natijasidir. Falastinning iqtisodiy imkoniyatlari juda cheklangan bo‘lib, mamlakatning resurslari va sanoat infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Ishsizlik darajasi juda yuqori, bu esa aholi orasida umidsizlikni kuchaytiradi. Falastin iqtisodiyotining asosiy muammolaridan biri, uning Isroilga qarab turishidir. Isroil bilan yuqori darajadagi iqtisodiy bog‘liqlik bo‘lsa-da, Falastin o‘zining to‘liq iqtisodiy mustaqilligiga erisha olmagan. Bu o‘z navbatida hududda ijtimoiy va siyosiy beqarorlikni kuchaytiradi. Falastin aholisining iqtisodiy umidsizlikka tushishi, zo‘ravonlik va radikallashtiruv xavfini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, hududda xavfsizlikni ta’minlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va urushlar davom etadigan muhitni yaratadi. Shuningdek, Isroilning o‘zining iqtisodiy salohiyatiga ham doimiy harbiy xarajatlar ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy



harakatlar va urushlar, albatta, iqtisodiy o'sishni cheklaydi va mamlakatning resurslarini sarflaydi. Agar Falastin o'z iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga muvaffaq bo'lsa, u holda xalqaro hamjamiyatdan samarali yordam olish orqali, bu mojaroning intensivligi pasayishi mumkin edi. Iqtisodiy mustahkamlik va tinchlik jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, hududda barqarorlikni saqlashga yordam berishi mumkin edi.

Urushlarning oldini olish uchun iqtisodiy xavfsizlikning ahamiyati

Yuqoridagi urushlardan saboq chiqaradigan bo'lsak, iqtisodiy xavfsizlik Uchinchi Jahon urushining oldini olishda muhim rol o'ynashi mumkin. Davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar ko'pincha iqtisodiy resurslar, savdo, va strategik qiziqishlar bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash orqali urushlarning oldini olish, barqarorlikni saqlash va tinchlikni mustahkamlash mumkin. Birinchidan, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy aloqalar kuchaygan sayin, davlatlar o'rtasida urush qilish ehtimoli kamayadi. Masalan, Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi va uning a'zolari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik, siyosiy ziddiyatlar o'rtasida ham, tinchlikni ta'minlashga yordam berdi. Iqtisodiy integratsiya, umumiy iqtisodiy manfaatlar, o'zaro savdo va o'zaro bog'lanish davlatlarni o'zaro qarama-qarshiliklardan voz kechishga undaydi. Ikkinchidan, energetik mustaqillikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Energiya resurslari bo'yicha bog'liqlik va xavfsizlikka tahdidlar davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Buning eng yaxshi misoliga Ukraina va Rossiya o'rtasidagi mojaro orqali energiya ta'minoti va resurslarining strategik ahamiyati misol bo'la oladi. Davlatlar o'z energetik mustaqilligini ta'minlash uchun diversifikatsiyalangan ta'minot tizimlarini yaratishlari, barqaror energiya manbalarini izlashlari zarur. Shuningdek, tashqi iqtisodiy bosimlarga chidamli tizimlar yaratish ham muhimdir. Sanksiyalar yoki iqtisodiy blokadalar ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtiradi. Shuning uchun, davlatlar iqtisodiy tizimlarini



barqaror va mustahkam qilib, tashqi bosimlarga chidamli bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy urushlarni kamaytiradi va xalqaro siyosatda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu tarzda, iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirish orqali, global miqyosda urush ehtimoli kamaytirilib, barqaror va tinch dunyo yaratish mumkin bo'ladi. Iqtisodiy integratsiya, energetik mustaqillik, tashqi bosimlarga chidamli tizimlar va iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish kabi chora-tadbirlar orqali davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar kamaytirilib, global urushlarning oldini olishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tajriba. (2021). *Iqtisodiy xavfsizlik: uni ta'minlashning mezonlari va yo'nalishlari*.
2. https://www.researchgate.net/publication/356595614_Iqtisodiy_xavfsizlik_uni_taminlashning_mezonlari_va_yonalishlari_Xalqaro_tajriba
3. Yashil iqtisodiyot taraqqiyoti. (2023). *Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati*.
4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2097>
5. Herald Kokand University. (2022). *Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar tahlili*. https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/779
6. Best Publication. (2023). *Rossiya-Ukraina mojarosining iqtisodiy harajatlari*. <https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/7296>